



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





QAHRAMON RUHIYATINI TASVIRLASHDA XARAKTER VA MOTIVNING AHAMIYATI

Uktamova Shohinaxon Dilmurodjon qizi

FarDU magistranti

Har bir yozuvchi badiiy asar yaratar ekan, unda turli obraz va xarakterni tasvirlaydi. Muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi xarakter bo'la olishi mumkinligi manbalarda keltiriladi⁴⁸. Aristotelning "Poetika" asarida shaxs irodasi yo'nalishini ko'rsatuvchi narsa xarakterni belgilashi keltiriladi. Shuningdek, Timofeyev fikriga ko'ra, obrazning yadrosi xarakter bo'lsa, G.A.Abramovich ta'kidlashicha, qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmui xarakter deb yuritiladi⁴⁹. Badiiy asarda xarakterni belgilovchi ruhiy xususiyatlar shaxsning iroda yo'nalishi uning umumlashmaligini aniqlashga xizmat qiladi. Nazariy fikrga asoslangan holda Asqad Muxtorning "Chinor" romanidagi bir necha xarakterlar tahliliga to'xtalamiz. Jumladan, Ochil buva, Akbarali, Komila obrazlarining xarakterga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Ochil buva obrazi xarakter darajasiga ko'tarilishi uchun unda yetarlicha ruhiy belgilar, psixofiziologik tasvirlar uchraydi. Asarda Ochil buva obrazi yoshi ulug' keksa sifatida tasvirlansa-da, boshqa asarlardan tasvirlangan keksa chol obrazlarida o'zining qaysarligi, hamma ishga bosh-qosh bo'lishi, ichki kechinmalarini namoyon qilishdagi holatlari va avlodlariga nisbatan o'zaro munosabatning tasvirlanishi kabilar bilan ajralib turadi. Ochil buva obrazi murakkab xakteri, avvalo, qishloq ahli uchun arbob, har bir ishda undan maslahat oluvchilar bisyor, farzandlari uchun ota, nabiralari uchun g'amxo'r bobo, chevaralar uchun mehribon buva, jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar davrida aqlli va mulohazali xalq vakili, el boshiga ish tushganda jonkuyar oqsoqol sifatida namoyon bo'ladi. Nabirasi Akbarali esa bobosidan farqli ravishda kerakli vaqtda chora topa olmaydigan, falokatni oldini olishi mumkin bo'lgan vaziyatda jur'atsizlik qilishi bir umrlik pushaymoniga va o'zining halokatiga sabab bo'ladi. Komila obrazi esa yuqoridagi xarakterlarga nisbatan, umuman, ayol obrazining xarakter sifatida tasvirlanishiga ko'ra farqli ravishda tasvirlanadi. Xususan, Komila obrazi ayollarga xos nafosat va go'zallik kabi sifatlar bilan emas, balki, o'ziga xos jasoratli va mard ayol, ikki farzandning jonkuyar onasi sifatida tasvirlanadi. Uning xarakter sifatida yuzaga chiqishi muallif tomonidan tasvirlangan psixofiziologik holatlar tasviri va voqealar rivojidagi vaziyatlar vositasida namoyon bo'ladi. Jumladan, "tashqaridan qaraganda guldek oilasi bor ayol" o'z oilasini tashlab, boshqa erkak bilan ketib oilaga xiyonat qiladi. Sababi u ayol qalbiga, o'z hislariga xiyonat qila olmaydi, o'z vijdoni va ixtiyoriga qarshi yashay olmaydi. Shu kabi o'rinlarda Komilaning xarakter ko'rinishi yuzaga chiqadi.

⁴⁸ Quronov D, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati.Toshkent:Akademnashr, 2013.

⁴⁹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent:O'zbekiston, 2002.





Adabiyotshunoslik ilmida motiv termini turli xil ma'nolarda qo'llaniladi. "Voqeaband asarlarda motiv syujet sxemasi yoki biron bir narsa, holat, obraz kabi qator ko'rinishlarda voqe bo'ladi. Motivga xos muhim jihatlardan biri muayyan turg'unlikka egalikdir. Ya'ni motivlar yarim tayyor holda olinadi: mavjud motivlar aynan emas, o'zak saqlanib qolingani holda yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati va ijodiy niyatidan kelib chiqib turli variantlarda talqin etiladi"⁵⁰. "Chinor" romanida ham bir qancha motivlarni uchratish mumkin. Ochil buva va Azimjonning uzoq yo'lga otlanishi safar motivini, Komila hikoyasida tasvirlangan shamol, dovul motivini, urush motivini, Yo'ldoshning hikoyasida tasvirlangan cho'lni o'zlashtirish kabi motivlarini muallif mahorat bilan tasvirlaydi. O'zbek xalq og'zaki ijodida, dostonchilik an'analari, shuningdek, boshqa nasriy hamda she'riy asarlarda personaj va obrazlarning muhim topshiriqni bajarish, qandaydir predmetni qo'lga kiritish, o'z baxtini izlab yoki farzandli bo'lish arafasida va shu kabi sabablarga ko'ra safarga chiqish, yo'lga otlanish tasvirlari uchraydi. Shu boisdan, chol va nabiraning uzoq manzillarga otlanishini safar motivi deb hisoblash mumkin bo'ladi. Komila taqdiri tasvirlangan qismda bir oilali ayolning boshqa erkak bilan ketib qolishi, oilaga xiyonat motivi mavjud. Xuddi shu kabi taqdir voqealari O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" dagi Ra'no, "Dunyoning ishlari" dagi Xo'ja ning onasi hamda Lev Tolstoyning "Anna Karenina", Gyustav Floberning "Bovari xonim" asarlarida tasvirlangan obrazlar bilan ham yuz beradi. Shuningdek, Komila hayoti tasvirlanar ekan, Komilaning noqulay ob-havoda tavakkal qilib jonini xatarga qo'yishi va ayni paytda shamol tasviri qahramon ruhiyati bilan parallel tarzda o'sib boradi. Keltirilgan peyzaj tasviri shamol motivi vositasida qahramon ichki olami va taqdiriga ishora qiladi. Cho'lni o'zlashtirish motivi Said Ahmadning ko'plab asarlarida va o'sha davrda yashab ijod qilgan ijodkorlarning aksariyatida uchratish mumkin bo'lgan jarayon hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, "Chinor" romanida ko'plab personajlar xarakter darajasiga ko'tarila olgan bo'lib, bir qator motivlar yordamida xarakterning o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Bu esa muallifning badiiy-estetik mahoratining yuksakligini ko'rsatadi. Har bir xarakter va motiv asardagi personajlarning ruhiyatini yoritishga xizmat qilgan. Jumladan, Komila obrazida xarakter va motiv tasvirlarini yuqorida keltirdik, bular bilan bir qatorda peyzaj tasviri ham parallelizmni yuzaga keltirib obrazning ruhiy olamini o'ziga xos usulda tasvirlaydi. Uchala obrazni qiyosiy tahlil qilganda, ularning har biri romandagi alohida motiv bilan bog'langanini ko'ramiz. Bu motivlar qahramonlarni faqat bezash uchun emas, balki ularning xarakterini chuqurlashtirish, ichki dunyosini ochish va asarning umumiy falsafiy mazmunini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu uch obraz bir-birini takrorlamaydi. Aksincha, ular roman psixologik olamini kengaytiradi. Ochil bobo o'tmish va avlodlar tajribasini, Komila faol hayotiy pozitsiyani, Akbarali inson qalbidagi ayb va pushaymonlikni ifodalaydi. Shu orqali roman oddiy voqealar bayonidan ko'ra kengroq ma'no kasb etadi hamda unda

⁵⁰ Quronov D, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati.Toshkent:Akademnashr, 2013.





insonning hayot, tarix, vijdon va mas'uliyat oldidagi ruhiy holati tahlil qilinadi. Asqad Muxtor qahramon ruhiyatini ko'rsatishda ortiqcha izohga berilmaydi. U qahramonlarni sun'iy ravishda "yaxshi" yoki "yomon" toifaga ajratmaydi va muallif nutqida personaj xarakteriga xos sifatlardan ko'ra psixofiziologik tasvirlari ko'proq uchrashi, bu kabi tasvirlar bevosita obraz ruhiyatini namoyon etganini ko'rish mumkin. Shu jihat romanning psixologik realizmini kuchaytiradi. Xulosa qilib aytganda, **"Chinor" romanida xarakter va motiv tasvirlari qahramonlar badiiy psixologizmini ochishning eng muhim vositasidir.** Shu bois romanda motiv va xarakter birlashib, inson qalbining murakkab, ziddiyatli va hayotiy manzarasini yaratadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Quronov D, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
3. Ahmadjonova O. Badiiy asar qahramonining psixologik va psixofiziologik talqini. Filol.fan.bo'yicha fals. d-ri(PhD)...diss. – Farg'ona, 2023.
4. Botirova Sh. Hozirgi o'zbek romanlarida psixologizm. Filol.fan.bo'yicha fals. d-ri(PhD)...diss. – Qarshi, 2019.
5. Asqad Muxtor. Chinor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
6. ziyouz.com sayti

